

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 17:37.013.42(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI KOMILLIKGA ERISHISHIDA FAZL IBN AHMAD MEROSINING O'RNI**РОЛЬ НАСЛЕДИЯ ФАЗЛА ИБН АХМАДА В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНО СОВЕРШЕННОЙ ЛИЧНОСТИ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****THE ROLE OF FAZL IBN AHMAD'S HERITAGE IN THE MORAL AND SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN****Soipova Mavjuda Karimjanovna** 
Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning falsafiy va axloqiy merosi asosida yosh avlodni komillikka yetaklash masalasi tahlil qilinadi. Muallif fikricha, Yangi O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy yetuk va axloqan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda milliy va islomiy merosga tayanish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Fazl ibn Ahmadning inson nafs, aql va qalb muvozanati, axloqiy kamolot hamda ma'rifatparvarlik to'g'risidagi ta'limotlari bugungi yoshlar uchun ruhiy-ma'naviy dastur vazifasini o'taydi. Uning falsafasida inson o'z nafsini tarbiya qilish, ilm orqali komillikka erishish va jamiyat manfaatiga xizmat qilish g'oyalari asosiy o'rin tutadi.

Fazl ibn Ahmad merosini o'rganish va uni ta'lim-tarbiya jarayonlariga joriy etish yoshlarda vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Shu bois, bu meros Yangi O'zbekiston ma'naviy siyosatining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос воспитания молодого поколения в духе совершенства на основе философского и этического наследия Фазла ибн Ахмада. По мнению автора, в условиях Нового Узбекистана опора на национальное и исламское наследие имеет особое значение в формировании духовно зрелой и нравственно совершенной личности. С этой точки зрения, учения Фазла ибн Ахмада о человеческой душе, разуме и сердце, моральном совершенстве и просвещённости выступают духовно-нравственной программой для современной молодёжи. В его философии ключевое место занимают идеи воспитания души, достижения совершенства через знание и служения на благо общества.

Изучение наследия Фазла ибн Ахмада и его внедрение в образовательный процесс способствует укреплению у молодёжи чувства патриотизма, духовной зрелости и социальной ответственности. Поэтому это наследие имеет особое значение как неотъемлемая часть духовной политики Нового Узбекистана.

Abstract

In this article, the issue of guiding the younger generation toward perfection based on the philosophical and moral heritage of Fazl ibn Ahmad is analyzed. According to the author, relying on national and Islamic heritage plays a crucial role in educating the youth of New Uzbekistan as spiritually mature and morally upright individuals. From this point of view, Fazl ibn Ahmad's teachings on the human soul, the balance between reason and heart, moral perfection, and enlightenment serve as a spiritual and moral program for today's youth. His philosophy emphasizes the ideas of self-discipline, attaining perfection through knowledge, and serving the interests of society.

The study and integration of Fazl ibn Ahmad's legacy into the educational and upbringing processes strengthen the sense of patriotism, spiritual integrity, and social responsibility among young people. Therefore, this heritage holds special significance as an integral part of the spiritual policy of New Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Islom, axloq tana, ruh, ijtimoiy ilm taraqqiyot, insondialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

Ключевые слова: ислам, нравственность, тело, дух, социальное развитие, человек, диалектика, синергетика, детерминизм, духовные, национальные и общечеловеческие ценности, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетика, политика, право, демократия.

Key words: Islam, morality, body, soul, social development, human being, dialectics, synergetics, determinism, spiritual, national and universal values, progressive development, moral values, aesthetics, politics, law, democracy.

KIRISH

Fazl ibn Ahmad ta'limotida inson qadri-qiymati, ruhiy olamining barkamolligini boyitish, o'z-o'zini anglash, suhbat, nafsni tarbiyalash, kibrni yo'qotish, shukronalik va sabr g'oyalari hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning barqaror

FALSAFA

bo'lishidagi xizmati, ularning ma'rifatli jamiyatni barpo etishda barkamol avlod mafkuraviy immunitetini tarbiyalashdagi ahamiyati, yoshlarni barkamol, ilmga intiluvchan, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan, rostgo'y va halol inson bo'lib etishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari bo'yicha ma'lumotlarni olish imkonini berib, falsafiy, axloqiy qarashlarini yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mutafakkir fikricha, bid'atdan boshqa hech narsa dinni vayron qila olmaydi. Dinga eng katta zarar yoki xato keltiruvchi narsa - bid'atdir. Bid'at, ya'ni dindagi yangiliklar va o'zgarishlar, islomda ta'qiqlanadi, chunki ular Alloh va Payg'ambar (s.a.v.)ning hukmlariga zid keladi. Qalbini har bir notanish suhbatdoshga ochmaslik, bizga payg'ambarimizdan vasiyat bo'lib qolganligini, ma'rifaqiz insonlarning iymonsizligi, ular bilan bo'ladigan bahsu munozaralar foyda bermasligi to'g'risidagi pandu nasihatlarini hozirgi davrda xalqimizning aqidaparastlikka, bid'at va turli oqimlarga berilmaslikka chorlash borasida ahamiyatlidir. Mashrab diniy mutaassiblikning kelib chiqishiga sababini "Ma'rifatdan bexabarsan, gavharimni kavlama"¹⁵ degan fikri bilan izohlagan.

Fazl ibn Ahmad hech narsa ta'magirlik qadar insonni tubanlashtirmaydi. Odamlar amalining islohi rahbar vositasida ado qilinishini keltiradi.

Ya'qub Charxiy "Qalam" surasini tafsirlashda ta'ma masalasiga ham alohida to'xtalib tasavvufiy tahlil qiladi. Mutasavvif fikricha, "orif kishi o'zining do'stlaridan dunyoviy narsalarni tama' qilmaydi. Chunki, insoniylik uning tabiatidagi eng ulug' vazifasi hisoblanadi"¹⁶. Demak, inson yaxshilikni chin dildan qilishi, evaziga biror narsa tama' qilmasligi kerak. Inson halol mehnat qilib, tama' qilmasa, uning oxirati obod bo'lib, Allohni vasliga etadi. Ya'qub Charxiy podshoh va hokimlarning o'nta shartini tahlil qilib berib, raiyat (xalq) ning huquqlarini keltiradi. "Ikkinchi haq shuki, avomning bir-birlari to'g'risida chaqimchilik qilib aytgan gaplarini eshitmasinlar. Zero, uning oxirida fitna va nadomat qiladilar. Xossatan, fosiqlarning, g'arazgo'ylarning, xalqdan tama' qiladigan tamagirlarning, hammadan ayb qidiradigan hasadgo'ylarning gaplarini tinglamasinlar"¹⁷.

NATIJALAR

Fazl ibn Ahmad fikricha, quyidagi to'rt narsa inson amallariga yordam qiladi:

اربع خصال تعين المرء على العمل: الصحة و الغنى و العلم و التوفيق¹⁸.

Mazmuni:

Birinchisi: Salomatlik, ya'ni ibodat va yaxshi amallarni bajarish uchun insonning sog'lom bo'lishi muhimdir. Sog'lom inson o'zini yaxshi his qiladi, yaxshi faoliyatlarni bajaradi, va unga bo'lgan salohiyatini samarali ishlatishga imkoniyat tug'iladi.

Ikkinchisi: Boylik, ya'ni faqat moliyaviy jihatda emas, balki odamga turmushda qulaylik yaratish, o'z oilasini ta'minlash va boshqalarga yordam berish uchun ham muhimdir. Boylik insonga ish va amallar uchun imkoniyatlarni oshiradi.

Uchinchisi: Ilm, ya'ni insonning harakatlarini va qarorlarini to'g'ri yo'lda boshqaradi. Bilim orqali inson jamiyatga yordam beradi, o'z qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaxshilaydi va ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

To'rtinchisi: Tavfiq, Allohning yordami va muvaffaqiyat tushunchasi bo'lib, insonning harakatlaridagi muhim omillardan biridir. Tavfiqqa ega bo'lish inson Allohning marhamatiga erishib, hayotdagi har qanday qiyinchilik va sinovlarga bardosh beradi.

Mutafakkir olimlarning fazilatlarini quyidagi hadis asosida tahlil qiladi.

والحلم لباس العالم فلا تحريّن منه بحار الأنوار¹⁹.

Mazmuni: "Halimlik (muloyim fe'llik) olimning libosidir, uni yechmanglar"

Demak, mutafakkir hadis orqali insondagi ilm va xulq-atvorning ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Islomda olim insonda sabr va amal muhim ahamiyat kasb etadi. Halimlik, ya'ni fazilat oliming "qiyomi" (ya'ni, kiyimi), degan ma'noni anglatadi. Demak, inson ilmga ega bo'lganida, nafaqat bilim olish bilan cheklanishi kerak, balki sabr va amalda e'tiborli bo'lishi kerak bo'ladi.

¹⁵ Mashrab. Девон / Тадқиқ қилувчи, қўлёзма ва босма манбаълардан жамлаб нашрга тайёрловчи, луғатлар ҳамда изоҳлар муаллифи Жалолиддин Юсуфий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 133.

¹⁶ Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. – B. 30.

¹⁷ Зойиров Э.Х. Яъқуб Чархийнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари. – Бухоро., 2023. – Б. 199

¹⁸ فضل بن احمد بن خلف بخاري. عده المعقول و عده المعقول في اوضح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ش. 1993 م.

¹⁹ فضل بن احمد بن خلف بخاري. عده المعقول و عده المعقول في اوضح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ش. 1993 م.

Olim kishining gunohiga oladigan azobi bir necha barobar bo'ladi. Chunki u bilib turib osiylik qiladi. Shuning uchun ham Qur'onda: "Albatta, munofiqlar do'zaxning eng tubida (bo'lur)lar"- deyiladi²⁰. Chunki ular bilganlaridan keyin inkor qildilar.

Rasululloh (sollallohu alayhi vassallam) aytadilar: "Albatta, olim shunday azob bilan azoblanadiki, azobining qattiqligidan do'zax ahllari uning atrofini aylanadilar. Shunda do'zax ahllari uning atrofini o'rab olib: "Senga nima bo'ldi?" deb so'rashadi. U: "Yaxshilikka buyurib, o'zim qilmas edim, yomonlikdan qaytarib, o'zim qilar edim", deb javob beradi²¹.

Hasan Basriy "Olimlarning jazosi qalblarining o'lishidir. Qalbning o'limi esa, oxirat amali bilan dunyo talab qilishdir"²².

MUXOKAMA

Fazl ibn Ahmad insonni axloqini bosqichma-bosqich tahlil qilib, taqvonni o'rniga alohida e'tibor qaratadi.

فاني اوصيك بتقوى الله فان فيها السلامة من التلف والقيمة في المنقلب ان الله عز وجل بي بالتقوى عن ما عند العرب عنه عقله و بخل بالتقوى عنه عذاء و جهلة و بالتقوى نجا نوح و من معه في السفينة و صالح و من معه الصاعقة و بالتقوى فاز الصابرون²³.

Mazmuni: Men seni ilohiy taqvo tomon chaqiraman. Negaki taqvo salomatlik garovi, halokat va nobudlikdan qutulish yo'lidir, ko'rgilik va falokatdan asraguvchidir. Xudo taqvosi hurmatidan bandani aqli ojiz qolgan lahzada saqlaydi. Taqvo hurmatidan bandasining ko'rgilligi, johilligini ravshan aylaydi. Taqvo hurmatidan Nuh va uning yo'ldoshlariga kema bilan najot bag'ishladi. Solih va uning do'stlarini chakindan asradi. Taqvo tufayli sabr-matonatli odamlar to'g'ri va baxtli bo'ldilar.

Demak, mutafakkir fikricha, taqvo orqali inson nafsoniy halokatdan qutulib, ilm va sabrga ega bo'ladi. Taqvo insonning aqlini to'g'ri yo'lga boshlaydi. Allohning taqvosiga amal qilish, adashishdan qutulishga yordam beradi. Taqvo orqali inson har qanday kulfat va yomonlikdan, jumladan, har qanday dushmanlik va xato yo'llaridan qutulishi mumkin. Masalan, kema halokatdan qutqarilgani kabi, taqvo insonni qiyinchiliklardan saqlaydi. Sabr qilganlar, ya'ni, Allohning taqvosiga amal qilish va sabr bilan barcha qiyinchiliklardan ozod bo'lganlar, muvaffaqiyatga erishadilar. Insonning muvaffaqiyati, hayotidagi omad va xulq-atvori, taqvoga amal qilish bilan yaqindan bog'liq. Taqvo, nafsni taqqoslash, Allohning xohishlariga bo'ysunish va turmushdagi barcha narsalarni Allohning ko'rsatmalariga muvofiq tashkil qilishdir.

Mashrab Buxoroni tavsiflab, bu sifatlar unga doimiy, o'zgarmas va barqaror ekanligini aytib, "To yavmul jazo (ya'ni to qiyomat) be nuqsu be ofat Buxorodur", "Charoki koni ilmu, taqvoyu toat Buxorodur"²⁴ deb o'lka uchun barqaror, bardavom va xos ekanligini keltiradi. Demak, qaysi makonda haqiqiy ilm, taqvo, ibodat fazilatlar mavjud bo'lsa bu joy, albatta Buxoroga xos sifatlarga ega bo'lib, tinchlik barqaror bo'ladi.

Fazl ibn Ahmad fikricha, "kim haqni izlab o'lsa, lekin uni topa olmasa ham, u yaxshiroq holatda bo'ladi". Ya'ni, Payg'ambar (s.a.v.) ning "kim Alloh va Uning Rasuliga hijrat qilish maqsadida uyidan chiqsa...", degan hadisiga mos keladi.

فمن مات على طلب الحق ولم يدرك كما له فهو على خير و ذلك قوله: "ومن يخرج من بيته مهاجرا الى الله و رسوله الآية"²⁵

Mazmuni: Kimki yaxshi va pokiza niyat bilan ostonaga hatlab ko'chaga chiqsayu maqsadi amalga oshmay, ajal uni so'roqlab kelsa, bunday odam maqsadga erishgan, saodatga noil bo'lgan holatda o'lgan odam bilan barobardir. Bu esa Xudoning so'zidir. Kimki o'z uyidan Xudo va uning payg'ambari sari muhojirat qilsa, so'ng ajal uni quvib etsa, uning mukofoti Xudoning ixtiyorida.

XULOSA

Demak, Mutafakkir ilgari surilgan insonlar orasidagi kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashish, nafsni tarbiyalash, ilm-ma'rifatli bo'lish, tahdid va xavflardan ogoh bo'lish, g'aflat uyqusidan bedorlik, hushyorlik ruhiyatini shakllantirish kabi qarashlarining yosh avlodni yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalashda, ilm olishda munosib, tajribaga ega bo'lgan ustozni

²⁰ Куръони карим. // таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. -Тошкент, "Munir", 2021.-Б. 574.

²¹ Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Фаззолий. Ихёу улумид-дин. -Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. - Б. 147.

²² Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Фаззолий. Ихёу улумид-дин. -Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. - Б. 147.

²³ فضل بن احمد بن خلف بخاري. عده المعقول و عده المعقول في ايصاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ش. 1993 م. ص57

²⁴ Наврӯзова Г., Ҳошимхонов М. Бухоро Машраб тавсифида. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2020. - Б.7.

²⁵ فضل بن احمد بن خلف بخاري. عده المعقول و عده المعقول في ايصاح مباني الاصول. مشهد، چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371 ش. 1993 م. ص58

FALSAFA

tanlash hamda Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda manbaviy asos sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. // Hidoyat. –Toshkent: 2017. № 6. –B. 7
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2018. –B. 737
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn al-Futiy, "Talhis ma'rifat al-rij'al"// Najib Moyil Haraviy tarj. - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993 y. – B. 37.
4. Fazl ibn Ahmad "Iddat al-uqul va umdat ul-ma'qul". - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993 y. - B. 20.
- 4¹ O'z FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasi «oynaye gitnamo» 2984-raqamli qo'lyozma, 1-sahifa (fors tilida). 2a-b.¹
- 5 Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: "Sharq", 2003. – B. 75.¹
- 6 Axmedova M. Darslik. – T.: "Sharq", 2005. – B. 65.
- 7 Kedrov Konstantin. Parallelnye miry. - Moskva: "A i F Print", 2001. – S. 42.